RO‘ZMETOV Muhammad Mustafo
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi tayanch doktaranti,
Mir Arab oliy madrasasi o‘qituvchisi
e-mail: mustafohafiz0880@gmail.com

HANAFIY MAZHABINI RIVOJLANTIRGAN BUYUK FAQIHLAR

DISTINGUISHED FAQIHS WHO CONTRIBUTED TO THE DEVELOPMENT OF THE HANAFI MADHHAB

ВЫДАЮЩИЕСЯ ФАКИХИ, ВНЕСШИЕ ВКЛАД В РАЗВИТИЕ ХАНАФИТСКОГО МАЗХАБА

Annotatsiya. *Hanafiy mazhabi Imom Abu Hanifa (rh.) sharafiga shunday nomlangan. Ammo bu olimning davrida, u mazhab sifatida to‘liq shakllanmagan edi. Uning mazhabini asosan undan keyin kelgan shogirdlari va mashhur faqihlar rivojlantirdilar va keng miqyosga olib chiqdilar. Aynan hanafiy mazhabi rivoji Abu Hanifa (rh.) vafotidan keyin u kishining shogirdlari vositasida keng ildiz ota boshlagan. Mahzabning keng yoyilishi o‘sha zamonda eng katta mansab hisoblangan qozilar qozisi lavozimida faoliyat yuritgan Abu Yusuf (rh.) hissalariga to‘g‘ri keladi. Imom Muhammad esa hanafiy mazhabini asosan yozgan asarlari bilan keng ko‘lamda yoyilishiga sababchi bo‘lgan. Ana shundan so‘ng hanafiy faqihlari soni ham ortib, natijada mazhab boshqa o‘lkalarda ham yanada kengroq rivoj topdi. Mazhabning keng yoyilishiga yana bir omil esa, hanafiy mazhabi qolgan mazhablarga nisbatan yengilligida bo‘lgan. Ushbu maqolada hanafiy mazhabi rivojiga hissa qo‘shgan ba’zi mashhur faqihlar haqida so‘z yurutiladi.*

Kalit so‘zlar: *Ko‘fa, Basra, fiqh, faqih, mazhab, hanafiy, qozi, jizya, g‘animat, qiyos, mabsut, fuqaho.*

Abstract. *The Hanafi madhhab is eponymously named after Imam Abu Hanifa (r.a.). However, during the scholar’s lifetime, it had not yet fully crystallized as a distinct school of law. His doctrine was primarily developed and elevated to a broad scale by his disciples and renowned jurists who succeeded him. The deep rooting of the Hanafi school commenced specifically after the demise of Abu Hanifa (r.a.) through the agency of his students. The widespread dissemination of the madhhab is largely attributed to the contributions of Abu Yusuf (r.a.), who operated from the position of Chief Justice, the highest judicial office of that era. Imam Muhammad, conversely, facilitated the extensive proliferation of the Hanafi school principally through his written corpus. Consequently, the number of Hanafi jurists increased, leading to the further expansion and development of the madhhab in other territories. Another factor contributing to the school’s broad acceptance was its relative leniency and flexibility compared to other legal schools. This article discusses specific prominent jurists who contributed to the evolution of the Hanafi madhhab.*

Keywords: *Kufa, Basra, Fiqh, Faqih, Madhhab, Hanafi, Qadi, Jizya, Ghanima, Qiyas, Mabsut, Fuqaha.*

Аннотация. *Ханафитский мазхаб назван в честь Имама Абу Ханифы (р.а.). Однако в эпоху самого ученого данное направление еще не оформилось как полноценная, институционализированная правовая школа. Доктрина была развита и выведена на глобальный уровень преимущественно его учениками и выдающимися факихами последующих поколений. Фундаментальное укоренение ханафитского мазхаба началось именно после кончины Абу Ханифы (р.а.) посредством деятельности его последователей. Широкая экспансия школы во многом обусловлена вкладом Абу Юсуфа (р.а.), который занимал высший судейский пост того времени — должность верховного судьи. Имам Мухаммад, в свою очередь, способствовал масштабному распространению ханафитского учения главным образом через систематизацию и написание фундаментальных трудов. Впоследствии увеличение числа ханафитских правоведов привело к дальнейшему развитию мазхаба в других регионах. Еще одним фактором широкой популяризации явилась относительная гибкость и облегченность ханафитского мазхаба по сравнению с другими правовыми школами. В данной статье рассматривается деятельность некоторых известных факихов, внесших значимый вклад в эволюцию ханафитского мазхаба.*

Ключевые слова: *Куфа, Басра, фикх, факих, мазхаб, ханафит, кадий, джизья, ганимат, кияс, мабсут, фукаха.*

KIRISH

Hanafiy mazhabi dastlab Imom Abu Hanifaning fiqhi bilan dunyoga kelgan. Ushbu mazhabning keng tus olishi Abu Hanifa (rh.) ning zamonidan keyin boshlandi. U kishining

ISSN 2181-9572

shogirdlari ustozlarining yo‘lini mahkam ushlab, undan yurganlar hamda uni rivojlantirishga bel bog‘laganlar. Shu tariqa hanafiy mazhabi chuqur ildiz otgan. Mazhabni rivojlantirishda mutaqaddim (avval o‘tgan) va mutaaxxir (keyin o‘tgan) ulamolarning ham hissalari beqiyos.

ASOSIY QISM

Abu Yusuf (rh.)ning to‘liq ismlari Ya’qub ibn Ibrohim ibn Habib al-Ansoriydir. Bu kishi hanafiy mazhabining asoschisi, Abu Hanifa (rh.)ning eng taniqli shogirdlaridan biri bo‘lib, 113/731-yilda Iroqning Ko‘fa shahrida kambag‘al oilada tavallud topgan. Abu Yusuf 13 yoshida Ko‘fa qozisi mashhur faqih Ibn Abu Laylodan 9 yil fiqh ilmidan saboq olgan. So‘ngra o‘z davrida ilm ma’rifat quyoshi bo‘lib nur sochib turgan Abu Hanifaga shogirdlikka o‘tib 15 yil uning eng yaqin shogirdi va yordamchisi bo‘lib tahsil oldi. Abu Yusuf Abu Hanifaning darslarini shu qadar berilib qiziqish bilan tinglar ediki, hatto uning bir o‘g‘li vafot etganda imomning suhbatlaridan biror muhim masalani eshitmay qolishdan cho‘chib dafn marosimini o‘z yaqinlari va qarindoshlari bajarishini so‘ragan. O‘z zamonining buyuk olimlari bo‘lmish Molik ibn Anas, Sufyon ibn Uyayna, Ismoil ibn Uyayna va Hanzala ibn Sufyon kabi ulug‘ zotlardan fiqh va hadis ilmlarini o‘rgangan.

Abu Yusuf dastlab hadislar hofizi bo‘lsa ham Abu Hanifaga shogirdlikka kelgandan keyin ra’y va qiyos tarafdoriga aylandi. Ahli hadis ko‘pincha ra’y va qiyos tarafdorlarini yoqtirmagan bo‘lsalar ham ularning ko‘plari Abu Yusufga katta e’tibor qaratib uni maqtab kelganlar. Abu Hanifa shogirdlari Abu Yusuf xususan Zufar al-Huzayl bilan birgalikda fiqh nazariyasini ishlab chiqishgan. Imom Abu Yusuf ko‘plab kitoblar tasnif qilib qoldirgan. Ularning soni Ibn Nadimning ma’lumotiga ko‘ra 40 ta. Boshqa bir nashrda 36 ta deb ko‘rsatilgan. Abu Yusufning eng muhim va mashhur asarlari “Kitab al-xaroj” bo‘lib ushbu kitob Abbosiylar xalifasi Xorun ar-Rashid talabiga binoan yozilgan bo‘lib yer soliqlari (ushr, xaroj) sadaqot (zakot), jizya va urushlardan tushgan g‘animat va fay (o‘ljalari) haqida yozilgan. Ushbu kitob hanafiy mazhabining asosiy manba’laridan bri hisoblanadi. Abu Yusuf Imom Abu Hanifa vafotidan so‘ng Iroqdagi ulamolar davrasida ustozining o‘rnini egallab ishini davom ettirdi. Abu Yusufdan o‘sha zamonning ulug‘ zotlari va olimlari bo‘lgan Muhammad ibn Hasan Shayboniy, Ahmad ibn Hanbal, Bashir ibn Valid, Yahyo ibn Mai’n, Ali ibn Ja’d, Ali ibn Muslim Tusiy va Amr ibn Abu Amr kabi olimlar ilm o‘rgandilar.

Abu Yusufga o‘z zamonlarida biror kishi muqaddam bo‘lolmagan. Abu Hanifa ilmlarini yer yuziga tarqatgan olim Abu Yusuf edi. Bag‘dod xalifasi al-Mahdiy 775-785-yilda Abu Yusufni Bag‘dod qozisi etib tayinlagan. Xalifa Horun ar-Rashid 786-809-yillarda unga qozi ul-quzot mansabini berib butun xalifalikdagi barcha qozilarni tayinlash va qozilar qarori yuzasidan tushgan shikoyatlarni ko‘rib chiqish huquqini bergan. Bunday yuksak martaba Abu Yusufga Abu Hanifaning nazariy qarashlarini amaliyotda keng qo‘llash imkoniyatini bergan. Bu esa hanafiylik mazhabining tarqalishi va mustahkamlanishiga xizmat qilgan.

Abu Yusuf birinchi bo‘lib Islom dunyosida: “Qozi ul-quzzot” unvoniga erishgan faqih sanaladi. O‘z mazhabi bo‘yicha birinchi bo‘lib kitob yozgan olim hamdir. Ibn Xallikon ta’kidlashicha, birinchi bo‘lib qozilar va olimlar uchun maxsus kiyim (uniforma) tayinlagan buyuk qozi Abu Yusufdir. Mazkur libos qora salla va taylason (Libos ustidan yelkaga tashlab yuriladigan keng va uzun kiyim)dan iborat edi. Ayrim mamlakatlar jumladan yevropa mamlakatlarida sudyalar kiyadigan GOWN, HOOD, CAH kabi uniformalar Abu Yusuf tomonidan belgilangan kiyimning bir oz o‘zgartirilgan shaklidir.

Imom Abu Yusufning taxalluslariga sabab bo‘lgan o‘g‘illari Imom Yusuf ham mashhur olimlardan bo‘lib, otalari davrida Bag‘dodning g‘arbiy qismida qozi vazifasida ishlagan. Imom Abu Yusuf sud ishini bajarib turganlarida 182/798-yilda Bag‘dod shahrida vafot etgan.

Muhammad ibn Hasan Shayboniy Abu Hanifa (rh.)ning ikkinchi atoqli va ilg‘or shogirdi edi. U kishi 132/749-sanada tug‘ilib, 189/804-sanada vafot etgan. Kufa va Bag‘dod shaharlarida voyaga yetgan. 18 yoshigacha Abu Hanifaning dars halqasida bo‘lgan. Ustozi vafotidan so‘ng Abu Yusuf (rh) dan dars olib, kamolga yetdi.

Fiqhiy asarlar yaratish tom ma’noda yuzaga chiqishida Muhammad ibn Hasan Shayboniy (rh) ni alohida e’tibor ila tilga olishimiz lozim bo‘ladi.

U 14 yoshlaridan Abu Hanifaning majlislarida ishtirok eta boshlagan va to‘rt yil davomida ko‘p narsalarni o‘rgangan. Imom Abu Hanifa (rh) ning vafotlaridan so‘ng imom Abu Yusuf (rh) dan dars olgan. Keyin hanafiy mazhabini asosini tashkil etuvchi kitoblarni ta’lif qilgan.

Muhammad ibn Hasan Shayboniy (rh) hanafiy fiqhining hofizidir. U kishi birinchi bo‘lib muayyan fiqhni yig‘ib, kitob shakliga keltirga olimdir. Mazkur ulkan ishda Muhammad ibn Hasan Shayboniyga ikkinchi ustozi Abu Yusuf (rh) katta yordam bergan. U kishining qalamiga mansub bo‘lgan kitoblar ko‘p bo‘lib ulardan oltitasi alohida ahamiyatga molikdir. Mazkur olti kitob hanafiy fiqhining asosi hisoblanadi.

“I’lous-sunan” kitobining “Favoidul fiqhiya” nomli muqaddimasida shunday deyiladi: “Tarix guvohlik beradiki, ergashilgan imomlarning mazhablaridagi “Mudavvana”, “Hujja”, “al-Umm” va boshqa shunga o‘xshash kitoblar ulug‘ imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Hasan Shayboniy (rh) ning kitoblari yog‘dusi ila yozilgandir”.

Imom Zufar (rh) Iroqda tug‘ilib, Basrada vafot etgan. Avval hadis ilmi bilan shug‘ullangan. So‘ngra fiqhga o‘tgan. Qiyosda juda ham mohir bo‘lib, bu borada Abu Hanifa (rh) ning shogirdlari ichida eng peshqadami bo‘lgan. “Abu Hanifa (rh) uning iste’dodini maqtab “Zufar bizning qiyosimizdir” degan”. [3:167] U kishi 204/819-sanada vafot etgan.

Hasan ibn Ziyod avval Abu Hanifa (rh) ga keyin shogirdlari Abu Yusuf va Muhammad (rh) ga shogird bo‘lgan. Hadislar va ustozlarining qavllarini rivoyat qilish bilan mashhur bo‘lgan. “U kishi fiqh ilmida ham katta salohiyatga ega bo‘lib, 194/809-yilda Kufa qozisi bo‘lib ishlagan, lekin nazariy jihatdan kuchli faqih bo‘lsa ham, amaliyotda ushbu vazifani bajara olmagani sababli iste’foga chiqqan” [3:167]. U 204/819-sanada vafot etgan.

To‘liq ismlari Abu Abdurrahmon Abdulloh ibn al-Muborak al-Hanzaliy al-Marvaziy (736-797) ikkinchi darajali tobeinlardan. Hadis va fiqhda zamonasining yetakchi olimi. Marvda tavallud topgan. Ko‘p sayohat qilgan. Sayohatlari davomida Abu Hanifa (rh) bilan ko‘rishgan va u kishining mumtoz shogirdlaridan bo‘lgan. Imom Buxoriyning otasi u kishining shogirdi bo‘lgan. Suriyadan qaytayotganda vafot etgan. Abduloh ibn Muborakning “Kitob az-zuhd varraqoiq” nomli 16 juzli kitobi bizgacha yetib kelgan.

Abu Hafs Kabir Buxoriy Buxoroda 149/767-yiyda tavallud topgan. Islom olamining buyuk faqihlaridan biri hisoblanadi. Bag‘dodga borib Muhammad ibn Hasan Shayboniyga shogird tushgan. Abu Hafs Kabir Buxoriy birinchi bo‘lib hanafiy mazhabi ta’limotlarini Movarounnahrga olib kelgan deyiladi. Buxoroda ilimning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. U kishi “Qubbatul Islom” va “Islom dinining gumbazi” unvonini olgan. Abu Hafs Kabir Buxoriy 216/832-yili vafot etgan va Buxorodagi Darvozai nav qarshisidagi tepalikda dafn etiladi.

Abu Bakr Muhammad ibn Abu Sahl Saraxsiy furu’ul fiqhdagi eng mashhur ulamolardan biridir. Imom Saraxsiy 483/1090-sanada Farg‘ona shahrida vafot etgan. U kishi Shamsul Aimma Abdulaziz Halvoniyning shogirdlaridandir. Imom Saraxsiy fiqh, usul va hadis bo‘yicha buyuk va mashhur olim bo‘lgan. Hanafiy ulamolari Imom Saraxsiyni sohibi mazhabdan rivoyat bo‘lmagan masalalarda mujtahid deb hisoblaydilar.

U kishi ko‘p kitoblarini, jumladan, dunyoga mashhur “Mabsut” kitobini ham O‘zgandagi zindonda o‘tirib yozgan. “Mabsut” Hanafiy mazhabidagi furu’ul fiqh kitoblarining eng mashhurlaridan biridir. Bu kitob 30 jilddan iborat bo‘lib mutaxasislar takidlashlaricha, Hanafiy mazhabining asosi hisoblangan va Muhammad ibn Hasan shayboniy ta’lif qilgan “Zohirur rivoya” turkumidagi olti kitobning sharhi hisoblanadi.

Movarounnahrning taniqli faqihlaridan bo‘lgan Burhonuddin Ali ibn Abu Bakr ibn Abdujalol al-Farg‘oniy al-Marg‘inoniy hijriy 511/1123-sanada Rishton tumanida (Farg‘ona vodiysi) tug‘ilib, hijriy 593/1197-sanada Samarqandda vafot etgan. U kishi “shayxul-islom” martabasiga ko‘tarilgan faqih edi. Burhonuddin Marg‘inoniyning eng nodir asari bu 4 jildlik “Hidoya”dir. “Hidoya” asarining qanday ahamiyatga ega ekani bayonga muhtoj emas.

Hijriy 745/1344-sanada vafot etgan mashhur faqih Sodrush-shari’a Ubaydulloh ibn Mas’ud hanafiy mazhabida yetuk faqih ekaniga ulamolar ittifoq qilishgan, ammo, alloma ekanliklarida ixtiloflar bor. U kishi bir qancha ilmlarda yetuk olim bo‘lgan. Ilmni bobolari Imom Tojush-shari’a Muhammad ibn Sodrush-shari’a va boshqalardan olgan. Ubaydulloh ibn Mas’ud bizning

ISSN 2181-9572

diyorlarimizda mashhur bo‘lgan “Muxtasari Viqoya” kitobining muallifidir. Hozirda bu kitob yurtimizdagi Islom bilim yurtlarida fiqh fanidan darslik sifatida o‘qitiladi.

Ibn Humam nomi bilan mashhur bo‘lgan bu faqih hijriy 790/1388-sanada Iskandariyada tavallud topgan. Ibn Humamning to‘liq ismlari Kamoliddin ibn Abdulvohid ibn Humamdir. Hanafiy mazhabining faqihlaridan. U kishining otalari Turkiyada qozi bo‘lgan. So‘ngra Iskandariyada qozilarga bosh bo‘lgan. Ibn Humam ham shu joyda tug‘ilib, voyaga yetgan. Keyin Qohiraga hijrat qilgan va ilmda yuksak martabalarga erishgan. Kamoliddin ibn Abdulvohid ibn Humam 861/1456-sanada vafot etgan.

Imom, alloma, hofizul qur’on, hanafiy fiqh ilmini jamlovchi, buyuk muhaddis, shayx va dinning nuri nomli unvonlarga sazovor bo‘lgan “Mulla Ali Qoriy” to‘liq ismlari – Abul Hasan Ali ibn Sulton Muhammad Al-Qoridir.

U kishi 930/1523-hijriy sanada Xuroson shaharlarining Hirot (hozirgi Afg‘oniston)da tavallud topgan. Shuning uchun ham u kishiga Hirotning nisbati berilib Haraviy dayilgan. Makkai Mukarramaga hijrat qilganidan so‘ng Makkiy deb atalgan.

Hirot Islom ilmi va madaniyatining beshigi bo‘lgan bir paytda boshlang‘ich ta’limni yurtining ulamolaridan olgan. So‘ngra Makkai Mukarramaga safar qilgan. Makkai Mukarramada faqihlar va muhaddislar majlislarida qatnashib ko‘p narsalarni o‘rgangan. Natijada shar’iy ilmlarda peshqadamlardan biriga aylangan.

U kishi o‘z mehnatlari evaziga kun ko‘rar edil. Shayx Usmon Uryon Mulla Ali Qorining tarjimai hollarida shunday deydi: Mulla Ali Qori har yili bir mus’haf yozib, uni sotar edi. Puli kelgusi yilgacha bo‘lgan hayotiga kifoya qilardi. Ba’zi rivoyatlarda bir yilda ikkita mus’haf yozib, bittasining pulini faqirlarga sadaqa qilar, boshqasini esa o‘zi kelgusi yilgacha foydalanardi, deyilgan.

Mulla Ali Qori ilmni yetuk ustozlardan olagan. Misol qilib Ibn Hajar Haytamiy, Aliyyul Muttaqiy al-Hindiy, Mirkalon, Abdulloh as-Sindiy, Qutbiddin al-Makkiy, Ahmad ibn Badruddin al-Misriy, Sayyid Zakariyyo al-Hasaniylarni keltirish mumkin. Mulla Ali Qorining Imom Abdulqodir Tabariy, Abdurrahmon Murshidiy, Shayx Muhammad ibn Farrux al-Muvraviy va Sulaymon ibn Sofiyyuddin al-Yamoniydek shogirdlari ham o‘z zamonasining yetuk shaxslaridan bo‘lgan.

Ali Qori turli ilmlarga oid juda ko‘plab kitoblar ta’lif qilgan. Bu haqida uning nabirasi: “Mulla Ali Qori uch yuztaga yaqin kitob yozgan” degan.

Qiroat va tajvid ilmida “Sharhush Shotibiya”, Aqoid ilmida “Sharhu fiqhul akbar”, kabi kitob yozishda alohida malakaga ega bo‘lgan. Hadis ilmida “Mirqotul mafatih sharhu mishkotul masobih” hamda hanafiy mazhabining hukm olishda shariatning asl masdarlaridan foydalanganligini isbotlovchi “Fathu bobul inoya bisharhi niqoya” asarlari Mulla Ali Qorini qanday ilm salohiyatga ega ekanligini ko‘rsatib turibdi. Hatto bugungi kundagi tolibi ilmlarning shariat ilmlarini o‘rganishda ushbu kitoblarga hojati tushadi. U kishi haqida ko‘plab olimlar maqtovlar aytishgan. Jumladan: Abdulmalik Asomiy “Simtun nujumda” quyidagilarni yozadi: Mulla Ali Qori – aqliy va naqliy ilmlarni jamlaguvchi, sunnati nabaviya’ni biladigan jumhur olimlaridan biridir, hifzda va fahmda mashhurdir [13:19].

Qachon vafot etgani to‘g‘risida turli xil gaplar bor. Ularning eng sahihrog‘i 1014/1605- sana. U kishiga Misr olimlari al-Azhar Universitetida g‘oibona janoza namozini o‘qiganlari haqida rivoyatlar ham bor.

Muhammad Amin ibn Umar ibn Obidin Damashqda, 1198/1783-yilda tug‘ilgan. Damashqdagi hanafiy olimlari ichida o‘z asrida yetuk imom bo‘lgan. U kishining qalamiga mansub, “Hoshiyatu Ibn Obidin” nomi bilan mashhur “Roddul Muxtor alad Durrul Muxtor” kitobi bor. Ibn Obidinning bundan boshqa musannafotlari ham mavjud. U kishining o‘g‘illari Muhammad Alouddin ham Ibn Obidin nomi bilan mashhur bo‘lgan. Muhammad Alouddin “Quvvatu uyunul axyor” kitobini yozgan. Bu kitob Hoshiyatu Ibn Obidinni toldiruvchi hisoblanadi. Muhammad Amin ibn Umar ibn Obidin hijriy 1252/1836-sanada vafot etgan. U kishining ham mazhab rivojiga tadris va tasnif orqali hissasi katta bo‘lgan.

Kashmiriy imomul asr, o‘z asrining hofizi, turli xil ilmlarning peshqadami, zamonasida hanafiy mazhabining mashhur faqihlaridan biri bo‘lgan. U kishining to‘liq ismi Muhammad Anvarshoh Kashmiriy ibn Shayx Muazzamshoh ibn Abdulkabir shoh Kashmiriydir.

U kishinhing ajdodlari Bag‘doddan Mo‘ltonga borib so‘ngra Lohurga so‘ngra Kashmirga borib o‘rnanishib qolishgan.

Anvarshoh Kashmiriy 1292/1875-yili Kashmirda tug‘ilgan. Yoshligidan otasi va shahrining yetuk olimlaridan ta’lim olgan. Olimlar u kishining ta’liqotlarini ko‘rib, “Bu yigit o‘z davrining G‘azzoliysi va o‘z zamonasining Roziysi bo‘ladi” derdilar.

Yoshlari ulg‘aygach ilm talabida safarlar qilib yanada oliy cho‘qqilarni zabt eta oldi. Buyuk olim 1352/1933-yili vafot etgan.

XULOSA

Biz tepada nomlarini zikr qilib o‘tgan faqihlar boshqalarga nisbatan hanafiy mazhabiga ko‘proq xizmat qilishgan. Uni rivojlanishiga astoydil harakat qilishgan. Mazhabni mazhab sifatida e’tirof etilishiga mutaqaddim ulamolar hissa qo‘shgan bo‘lsalar, keyingi davr fuqaholari mazhabning shuhratini ushlab turganlar. Boshqa mazhablar oldida hanafiy mazhabini ham naqliy ham aqliy tomonlada hujjatlarini qoim qilib berganlar. Shu sababli oldingi davr faqihlarining ham keyingi davr ulamolarining ham hanafiy mazhabini rivojlantirishda alohida o‘rni bor deya olamiz.

FOYDALANILGAN MANVA VA ADABIYOTLAR

1. Abdulfattoh Abu G‘udda. Tarjimati sitti min fuqahoil olamil Islomiy fil qornir robi’ ashara va asaruhumul fiqhiya. – Halab: Maktabul matbuoti al-islomiya bihalab – 1997.
2. Abdusattor Shayx. Abdulloh ibn Masu’ud. – Toshkent: Movarounnahr – 2004.
3. Jo‘zjoniy, Abdulhakim Shar’iy. Islom huquqshunosligi, hanafiy mazhabi va O‘rta Osiyo faqihlari / Mas’ul muharrirlar: A.X.Saidov, A.Mansur. – T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyoti, 2002. – 256 b.
4. Muhammad Amin ibn Umar ibn Obidin. “Hoshiyatu Roddul Muhtor aladdurril Muxtor sharhu Tanviyrul Absor”. – Dimashq: Doru-l-fikr – 2005.
5. Mulla Ali Qori. Fathu Bobi-l-inoya bisharhin nuqoya”. Shirkatu Dorul Arqam Ibn Abu Arqam – 1997.
6. Muhammad Ali Tahonaviy. Kashshafu istilahatul funun val ulum / Tahqiq: Ali Daxruj. II juz. – Bayrut: Maktabatu Lubnon, 2006.
7. Mustafo Ahmad Zarqo. Al-Madxalul fiqhil omm. II jild. – Damashq: Dorul qalam, 2012.
8. Muhammad Abu Zuhra. Abu Hanifa. Hayotuhu va asaruhu, arouhu va fiqhuhu. – Qohira: Dorul fikril arabiy, 1977.
9. Muhammad ibn Hasan Shayboniy. Kitobul osor. – Haydarobod: Lijannati ihyail maarifil nu’maniya, 2019.
10. Muhammad ibn Idris Shofe’iy. Kitob al-Umm. – Qohira: Dorul vafo, 2006.
11. Muhammad Abu Zuhra. Tarix nusus fil fiqhil islomiy. II jild. – Bayrut: Dorul fikril arabiy, 2007.
12. Muhammad Amin Ehson Mujaddidiy Barakatiy. Qovaidul fiqh. – Bayrut: Dorun nashr, 2013.
13. Nazir Muhammad. Ar-Ravzatul Bahiya fi sharhi ahodiysul qudsiya al-arbainiya. – Dorul bashairul islomiya, 2003.

ISSN 2181-9572